Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 316

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

NEMIS MAQOLLARIDA NIKOH VA OILA TUSHUNCHASI: MILLIY - MADANIY QADRIYATLARNING PAREMIOLOGIK IFODASI.

Shoira Xamidovna Nuritdinova*

FDU, mustaqil tadqiqotchi

✉ shoiranuritdinova1961@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada nemis xalq maqollari (paremiologik birliklar) orqali nikoh va oila institutining milliy-madaniy qadriyatlarini ifodalanishi tahlil qilinadi. Nemis xalqi misolida nikoh oldidan tayyorgarlik, er-xotin munosabatlari, gender rollari va oilaviy mas’uliyat haqidagi tasavvurlar taxlil qilinadi. Tadqiqotda maqollarning so‘zma-so‘z va majoziy mazmuni, pragmatik vazifasi hamda xristian an’analari bilan bog‘liqligi ko‘rsatiladi. O‘zbek mentalitetidagi o‘xshash obrazlar bilan qiyosiy izohlar keltiriladi. Natijalar nemis maqollarining nikohni muqaddas, mas’uliyatli va puxta o‘ylab qabul qilinadigan ittifoq sifatida tasvirlashini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar

nemis maqollari, nikoh instituti, oilaviy qadriyatlar, paremiologiya, gender rollari, milliy-madaniy tasavvurlar, monogamiya.

DOI: 10.5281/zenodo.23278293

Kirish

Nikoh va oila instituti har bir xalq madaniyatida muhim qadriyat bo‘lib, bu mavzu ko‘plab maqol va matallarda o‘z ifodasini topgan. Germaniya misolida nikoh va er-xotin munosabatlari haqidagi paremiologik birliklar orqali nemis xalqining urug‘-aymoq an’analari, gender rollari haqidagi tasavvurlari va oilaviy hayotga doir qarashlari aks etadi[1]. Maqollar xalq donoligini obrazli shaklda ifodalab, nasihat, ogohlantirish, tasdiq yoki kinoya tarzida an’anaviy qarashlarni mustahkamlashga xizmat qiladi[2]. Ushbu maqola nemis maqollari misolida nikoh munosabati qanday milliy-madaniy qadriyatlarni ifodalashini ochib berishga qaratilgan. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy jamiyatda nikoh yoshi ortib, fuqaroviy nikohlar kengayayotganiga qaramay, an’anaviy maqollar yoshlarni mas’uliyatli qaror qabul qilishga undashda hali ham qo‘llanilmoqda.

Mavzuning nazariy asoslari

Paremiologiya xalq og‘zaki ijodi va milliy dunyoqarashni o‘rganishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. V. Mieder, A. Taylor, K.F.V. Vander, L. Royrix kabi olimlar maqollarni madaniy kod sifatida talqin etib, ular orqali jamiyatning tarixiy me’yorlari, erkak va ayol haqidagi qarashlar va oilaviy rollari haqida ma’lumot olish mumkinligini ta’kidlaganlar. Nemis tilshunos olimi Dietz-Ruydiger Moser nemis xalqining nikoh mavzusidagi ko‘plab maqollari o‘z ildizlarini xristian an’analaridan olishini va nikohni “samolarda bog‘langan” ruhiy ahd deb tasvirlashini qayd etadi[3]. L. Royrix esa xalq maqollarida ayol va erkak obrazlari ko‘pincha stereotipik bo‘lsa-da, ular orqali jamiyatning tarixiy gender me’yorlari va oilaviy vazifalari haqida ma’lumot olish mumkinligini aytadi[4].I.D. Kiseleva rus va nemis paremalarini qiyosiy tahlil qilib, nemis maqollarida nikoh masalasiga shoshilmasdan, puxta yondashish zarurligi ta’kidlanishini ko‘rsatadi[5]. Nazariy jihatdan maqollar uch asosiy vazifani bajaradi: 1) axloqiy-nasihat beruvchi; 2) ogohlantiruvchi; 3) madaniy qadriyatlarni mustahkamlovchi.

Ushbu yondashuv nemis maqollarini tahlil qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Asosiy tahlil

Nikoh oldidan ko‘riladigan tayyorgarlik, turmush qurish qarorini qabul qilish va jamiyatda nikohning qadrlanishi ko‘plab nemis maqollarida aks etadi. Ushbu maqollar nikohni muqaddas va ahamiyatli ittifoq sifatida tasvirlar ekan, yigit va qizning o‘ziga munosib juft izlashda ehtiyotkor bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi. Masalan, ba’zi maqollarda nikoh samodan turib ilohiy tarzda belgilanar ekan, uning taqdiri garchi ilohiy belgilangan bo‘lsa-da, er-xotin baxtli bo‘lishi kafolatlanmasligi uqtiriladi[6].

Birinchi guruh maqollar nikohning ilohiy belgilanganligini ifodalaydi:

Ehen werden im Himmel geschlossen.

So‘zma-so‘z tarjima: “Nikohlar samolarda bog‘lanadi.”

Majoziy mazmuni: nikoh – taqdir sifatida, ilohiy belgilangan bir ittifoq.

Ushbu mashhur maqol nikohning yuksak ruhiy maqomini ta’kidlaydi. Uning keng tarqalgan variantlarida nikoh osmondan amalga oshirilishi, ammo er-xotin o‘z baxtini yer yuzida o‘zi topishi lozimligi aytiladi. Maqol nasihat yo‘sinda bo‘lib, nikohning muqaddas ekanini eslatadi[7].

Ikkinchi guruh maqollar esa monogamiya va e’tiborni bitta vazifaga qaratish zarurligini bildiradi:

Man kann nicht auf zwei Hochzeiten zugleich tanzen.

So‘zma-so‘z tarjimasi: “Bir vaqtning o‘zida ikki to‘yda raqs tusholmaysan.”

Majoziy mazmuni: bir vaqtda ikki ishga (yoki ikki nikohga) ulgurib bo‘lmaydi.

Mazkur maqol kishi bir vaqtning o‘zida ikki katta majburiyatni bajara olmasligini ifodalab keladi. “Ikki to‘yda raqs tushish” obrazli ifoda orqali monogamiya tamoyili va e’tiborni bitta vazifaga qaratish lozimligi uqtiriladi. Pragmatik vazifasi – haddan tashqari ko‘p vazifani o‘z zimmasiga olmaslik haqida ogohlantirish[8].

Uchinchi guruh maqollar nikohni jiddiy qaror sifatida ta’kidlaydi:

Heiraten ist kein Pferdekauf.

So‘zma-so‘z tarjimasi: “Uylanish – bu ot sotib olish emas.”

Majoziy mazmuni: nikohni oddiy bir savdo yoki shunchaki bitim deb bo‘lmaydi, nikoh jiddiy qarordir.

Maqol nikoh mas’uliyatini urg‘ulab, uni sodda bir savdo-qarorga qiyoslab bo‘lmasligini bildiradi. “Ot savdosi” metaforasi orqali turmush qurishni puxta o‘ylab ko‘rish lozimligi, shoshma-shosharlik yoki yengil qaror xatarliligi ifodalangan. Bu naql yoshlarni o‘z umr yo‘ldoshini tanlashda jiddiy yondashishga undaydigan pragmatik vazifani bajaradi[9].

O‘zbek mentalitetida ham “ot savdosi emas, umr savdosi” degan mulohazalar mavjud. Shuningdek, yaxshi nikoh bilan yomon juftni ifodalashda ot va eshak tushunchalaridan foydalaniladi. Masalan: “ot deb minsang, eshak chiqadi, eshak deb minsang – ot” degan naqllar turmushning qanday bo‘lishini oldindan bilib bo‘lmaydi degan mazmunni beradi.

Shoshqaloqlikka qarshi ogohlantiruvchi maqollar ham muhim o‘rin tutadi:

Heiraten ist kein Wettlauf – man kommt immer noch früh genug an.

(“Uylanish poyga emas – baribir vaqtida yetib boriladi.”)

Ushbu maqol nikoh masalasida shoshqaloqlikni emas, balki ongli va puxta qaror qabul qilish zarurligini ifodalaydi. U nemis xalqining mulohaza va pragmatizm kabi milliy-madaniy qadriyatlarini aks ettirib, nikohni jamiyat bosimi ostida emas, balki shaxsiy tayyorgarlik va mas’uliyat asosida qurish g‘oyasini ilgari suradi. Rus va nemis paremalarini qiyosiy tahlil qilgan I.D. Kiseleva ham nemis maqollarida nikoh masalasiga shoshilmasdan, puxta yondashish zarurligi ta’kidlanishini bayon qiladi.[5].

Heiraten in Eile bereut man mit Weile.

(“Shoshilib uylansang, sekin-asta pushaymon bo‘lasan.”)

Mazkur maqol to‘g‘ridan-to‘g‘ri ogohlantirish mazmuniga ega bo‘lib, shoshqaloqlik bilan tuzilgan nikoh oxir-oqibat pushaymonlikka sabab bo‘lishini anglatadi. Undagi ohangdor qarama-qarshilik (“Eile” – shoshilish, “Weile” – vaqt) esda qolarli ibora hosil qilib, ta’sirchanlikni oshiradi. Illokutiv niyati – nikoh qarorini shoshmay, yaxshilab o‘ylab amalga oshirishga chaqirish[10].

Ko‘rinadiki, nemis an’anasida nikoh muqaddas ahd sifatida qaraladi va uylanishdan avval puxta o‘ylash, shoshilmaslik eng muhim qadriyat sanaladi. Xususan, katolik an’analari kuchli hududlarda (masalan, Bavariya)

nikoh “samoviy ne’mat” deb ulug‘lansa, zamonaviy shahar madaniyatida ham bu maqollarning dolzarbligi saqlanib qolgan. Ayni paytda, Germaniyada nikoh yoshi ortib borayotgani va fuqaroviy nikohlar kengayayotgani kuzatilsa-da, tahlil qilingan maqollar hali ham yoshlarni mas’uliyatli qaror qabul qilishga undashda qo‘llanilayotganini kuzatish mumkin.

Nikoh doirasida er va xotinning ijtimoiy rollari, huquq va majburiyatlari borasidagi an’anaviy tasavvurlar nemis maqollarida juda ko‘p uchraydi. Bu guruh maqollari patriarxal oiladagi rollar taqsimoti, ayolning uy ishlari va tejamkorligi, erning ro‘zg‘or boqish vazifasi kabi jihatlarni aks ettiradi. Nemis tilshunos olimi L. Royrix qayd etganidek, xalq maqollarida ayol va erkak obrazlari ko‘pincha stereotipik bo‘lsa-da, ular orqali jamiyatning tarixiy gender me’yorlari va oilaviy vazifalari haqida ma’lumot olish mumkin[4].

Natijalar va muhokama

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, nemis maqollarida nikoh quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1. Ilohiy belgilangan, muqaddas ittifoq.
2. Jiddiy va mas’uliyatli qaror (savdo yoki poyga emas).
3. Shoshqaloqlikka yo‘l qo‘ymaydigan, puxta o‘ylab qabul qilinadigan jarayon.
4. Monogamiya va e’tiborni bitta oilaga qaratish tamoyili.

Bu qadriyatlar xristian an’analari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ayni paytda nemis xalqining pragmatizm va mulohazakorlik xususiyatlarini ham aks ettiradi. O‘zbek maqollari bilan qiyoslash esa umuminsoniy qadriyatlar (mas’uliyat, ehtiyotkorlik) bilan birga milliy obrazlar farqini ham ochib beradi. Zamonaviy Germaniyada nikoh yoshi ortib, fuqaroviy nikohlar kengayayotganiga qaramay, mazkur maqollar hozirgi davrda ham yoshlarning oila va nikohga bo‘lgan munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa paremiologik birliklarning barqaror madaniy kod sifatida saqlanib qolganini tasdiqlaydi.

Xulosa

Nemis maqollarida nikoh va oila instituti muqaddas, mas’uliyatli va puxta o‘ylab qabul qilinadigan ittifoq sifatida tasvirlanadi. Maqollar orqali nemis xalqining urug‘-aymoq an’analari, gender rollari va oilaviy hayotga doir qarashlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu maqollar nafaqat tarixiy madaniy me’yorlarni, balki zamonaviy jamiyatda ham dolzarb bo‘lib qolayotgan axloqiy-nasihat beruvchi funksiyani bajaradi. Kelgusida o‘zbek va nemis maqollarining chuqurroq qiyosiy tahlili milliy-madaniy o‘ziga xosliklarni yanada aniqroq ochib berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Mieder W. Proverbs: A Handbook. – Westport, CT: Greenwood Press, 2004. – 304 p.

[2] Taylor A. The Proverb. – Cambridge: Harvard University Press, 1931. – 223 p.

[3] Moser D.R. Die Welt will Meister Klueglin bleiben: Martin Luther und das deutsche Sprichwort // Muttersprache, 1980. – 90. – S. 151-166.

[4] Röhrich L. Das große Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten. Bd. 2. – Freiburg/Basel/Wien: Herder, 1992. – S. 748.

[5] The Concept of “Family” in Russian and German Language Pictures of the World // Language and Text. – 2019. – Vol. 6. – No. 4. – P. 90–95. DOI: 10.17759/langt.2019060413

[6] Büchmann G. Der neue Büchmann. Geflügelte Worte. Der klassische Zitatenschatz. – Berlin: Ullstein Taschenbuch, 2007. – 672 S.

[7] Wander K.F.W. Deutsches Sprichwörter-Lexikon. – Leipzig: F.A. Brockhaus, 1867-1880. – S. 727.

[8] Wander K.F.W. Deutsches Sprichwörter-Lexikon: Ein Hausschatz für das deutsche Volk. Bd. 2. – Leipzig: F.A. Brockhaus, 1870. – S. 1028.

[9] Frischbier H. Preußische Sprichwörter und volksthümliche Redensarten. – Königsberg: Th. Theile, 1876. – S. 90.

[10] Simrock K. Die deutschen Sprichwörter. – Frankfurt am Main: Brönner, 1846. – S. 451.